



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT  
VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT  
INSTITUTI**

**Musiqashunos olim, san’atshunoslik fanlari doktori,  
professor Oqilxon Ibrohimovning yorqin xotirasiga  
bag‘ishlangan**

**“O‘ZBEK MUSIQIY MEROSINING TA’LIM  
TIZIMIDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI”**

**Respublika ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami**

**2023-yil 28-noyabr**

**TOSHKENT-2023**

UDK 04  
KBK 93  
O' 25

“O‘zbek musiqiy merosining ta’lim tizimidagi o‘rni va ahamiyati” mavzuyidagi respublika ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami [Matn]: materiallar to‘plami. – T.: O‘zDSMI, 2023. – 234 bet.

**Mas’ul muharrir:**

**Xudoyev G‘anijon** – *O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Cholg‘u ijrochiligi va musiqa nazariyasi” kafedrasi professori v.b., san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

**Tahrir kengashi a‘zolari:**

**Turg‘unova Nasiba** – *O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Cholg‘u ijrochiligi va musiqa nazariyasi» kafedrasi dotsenti, san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

**Yakubov Zohidjon** – *O‘zRFA San’atshunoslik instituti bosh mutaxassisi, musiqashunos*

**Xudoyqulova Nilufar** – *O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Cholg‘u ijrochiligi va musiqa nazariyasi” kafedrasi o‘qituvchisi*

Mazkur to‘plamdan joy olgan ilmiy maqolalar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Rayosati majlisining 2023-yil 27-apreldagi 39-son bayoni hamda O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 2-maydagi 118-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “2023-yil uchun mo‘ljallangan xalqaro va respublika tadbirlari rejasi”ga muvofiq, 2023-yil 28-noyabr kuni O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutida “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili” davlat dasturi asosida san’atshunoslik fanlar doktori, professor Oqilxon Ibrohimovning yorqin xotirasiga bag‘ishlangan **“O‘zbek musiqiy merosining ta’lim tizimidagi o‘rni va ahamiyati”** nomli Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasidagi materiallar asosida tayyorlandi.

**To‘plamga kiritilgan ma’lumotlarning to‘g‘riligi va aniqligi uchun mualliflar mas’ul.**

также в многочисленных сценических произведениях композиторов снискавшее признание и любовь народа.

Из эпоса мы многое узнаем о традициях и обычаях народа. Они сыграли исключительную роль в формировании и становлении национального искусства каракалпаков. Изучение специфики музыкального языка, жанрово-стилистических и композиционных особенностей каракалпакских дастанов представляется одним из наиболее актуальных задач современного музыковедения, требующих глубокого и всестороннего историко-теоретического рассмотрения.

#### Список литературы:

1. Адамбаева Т., Жийемуратов М. Жырау намалары. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1991.
2. Бердиханова Ш.Н. Метроритмические основы каракалпакских дастанов //Автореф...дисс..доктора философии по искусствам (PhD)... – Т., 2022
3. Давкараев Н. Очерки по истории дореволюционной каракалпакской литературы. - Т., 1977.
4. Сагитов И.Т. Каракалпакский героический эпос. – Т., 1962.

## ZARAUISOY VA SARMISHSOY QOYA QOYATOSH SUR'ATLARINING TA'LIMDAGI AHAMIYATI

**Ural SAFAROV,**

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti  
“Geografiya va uni o‘qitish metodikasi” kafedrasi dotsenti, p.f.n.,*

**Nilufar ATAMUROTOVA,**

*Navoiy viloyati Navbahor tumani 19-umumta'lim maktabi  
geografiya fani o‘qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi*

**Normamatova Kumush Farhod qizi**

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti  
“G va IBA” ta'lim yo‘nalishi 4-kurs talabasi*

**Annotatsiya.** *Hisor tizmasining janubi-sharqidagi Ko‘hitang tog‘ining sharqiy yon bag‘ridagi g‘or toshlariga ishlangan ibtidoiy san‘atning nodir namunalaridir biri Zarautsoy darasi (g‘ori) dir.*

*Ushbu sur‘atlarda katta tezlikda chopayotgan hayvonlar (yovvoyi buqa, it, tulki, yovvoyi cho‘chqa, burama shoxli echki, jayran, tog‘ echkisi, hasharot va boshqalar), turli buyumlar (o‘qoy, nayza, o‘roqsimon qurollar), niqoblangan odamlar o‘ziga xos tarzda hayotiy qilib tasvirlangan.*

*Toshga aylangan tarix - Sarmishsoy “san‘at galereyasi”. Navoiy shahridan 40 km.cha uzoqlikdagi Qoratog‘ tog‘ining janubiy yonbag‘ridagi Nurata tog‘lari yonbag‘rida joylashgan Samishsoy darasiga aynan shunday ta‘rif beriladi. Sababi uzunligi 2,5 km. ga cho‘zilgan bu darada 10 000 ga yaqin tosh qoyalarga o‘yib chizilgan petrogliflarni ko‘rishimiz mumkin.*

**Tayanch so‘zlar:** *Boysun, Ko‘hitang, Hisor, Qoratog‘, Nurota tog‘ tizmalari, Teshiktosh, Zindanak, Festivalniy, Qopqo‘ton, Omonxona, Xo‘ja-Mayxona, Xujai-Pok, Zarautsoy, Sarmishsoy darasi, Sarmishsoy “san‘at galereyasi, Petrogliflar, kiyik, arxar, tuyalar, yovvoyi buqalar, otlar va chavandozlar, “Qizil kitob”.*

**Аннотация.** *Одним из редких примеров примитивного наскального искусства на восточном склоне горы Кохитанг на юго-востоке Хисарского хребта является ущелье (пещера) Зарауцой.*

На этих скоростях бегут с большой скоростью животные (дикий бык, собака, лиса, кабан, рогатый козел, джейран, горный козел, насекомые и др.), различные предметы (волк, копье, серповидное оружие), люди в масках. изображены по-своему реалистично.

История, обернутая в камень - Сармишсойская "художественная галерея". Так описывается Самишсойское ущелье, расположенное на южном склоне горы Каратог, в 40 км от города Навои, на склоне Нуратинских гор. Его длина - 2,5. В ущелье, протянувшемся на 10 км, можно увидеть около 10 000 высеченных в скалах петроглифов.


**Ключевые слова:** Бойсун, Кохитанг, Хисар, Каратог, Нуротинские хребты, Тешикташ, Зинданак, Фестивальный, Капкотон, Амонхона, Ходжа-Майхана, Худжай-Пок, Зарутсой, Сармишсойское ущелье, Сармишсойская художественная галерея, Петроглифы, олени, архар, верблюды, дикие быки, лошади и всадники, "Красная книга".

Qadimgi tarixiy, ma'naviy obidalar va ulardagi ajdodlarimiz qoldirgan yodgorliklar asosida o'quvchi yoshlarni tug'ilib o'sayotgan yurtiga nisbatan mehr muhabbat, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ta'lim tizimimizning oldiga qo'yilgan bosh maqsadlardan biri hisoblanadi.

Surxon-Sherobod vodiysining g'arbiy qismidagi Boysun, Ko'hitang, shimoliy va shimoli-g'arbidagi Hisor, sharqidagi Bobotog' tizmalarida viloyat hududidagi aksariyat g'or va daralar joylashgan. O'lkamiz tog' tizmalarida mavjud bo'lgan Teshiktosh, Zindanak, Festivalniy, Qopqo'ton, Omonxona, Xo'ja-Mayxona, Xujai-Pok, Zarautsoy va boshqa g'orlar o'lka tog' tizma tabiatning ko'rki, o'ziga xos mo'jizasi hisoblanadi.

Shunday g'orlardan biri Hisor tizmasining janubi-sharqidagi Ko'hitang tog'ining sharqiy yon bag'ridagi g'or toshlariga ishlangan ibtidoiy san'atning nodir namunalari biri Zarautsoy darasi (g'ori) dir.

Zarautsoy darasi (g'ori) Surxondaryo viloyati markazi Termiz shahridan 100 - 110 km. shimoli-g'arbda Sherobod tumani Qizilolma qishlog'i yuqori qismidagi hududda joylashgan (1-rasm).



1-rasm. Zarautsoy darasidagi g'or

Zarautsoy darasidagi g'or to'g'risida quyidagi manbaani keltirib o'tish joiz: G'orlardagi tabiiy qizil bo'yoq bilan chizilgan antiqa rasmlarni 1939-yili yoz oylarida Termiz Davlat muzeyi xodimlari, tabiatshunoslar er-xotin K. F. Lomaev va Ye. S. Lomaevalar o'z tadqiqot olib borish jarayonida mahalliy aholi ko'magida Zarautsoy g'origa ekspeditsiya uyushtiradi. Ekspeditsiya vaqtida g'or devorga chizilgan turli xildagi juda ko'p ovlarga oid qurollarni, hayvonlar va ovchilar

rasmlarini ko‘rib, mahliyo bo‘lib qolishib ko‘plarini suratga olishadi. Ekspeditsiya natijalarini Termiz Davlat muzeyi direktori, arxeolog G. Ye. Parfenovga bu haqida so‘zlab berishadi. Tekshirish natijalari bu sur‘atlar ibtidoiy odamlar hayotidan lavhalar ekanligi, ya‘ni paleolit davriga munosibligi aniqlanadi.

1966-yili yana bir guruh tarixchilar A. P. Formazov rahbarligida 210 ta suratni chuqurroq o‘rganib, murakkab ishlanganini ko‘rgach, ular insoniyatning qadimgi paleolitdan birmuncha yoshroq davri mezolit davrida, ya‘ni kamon tarqala boshlagan davrida chizilgan deb hisoblangan.

Zarautsoy darasi ibtidoiy san‘atning noyob yodgorligi sifatida yodgorliklarni muhofaza qilish “Qizil kitob”iga kiritilgan (2-rasm).

Ushbu Zarautsoy darasi petrogliflarda qadimgi odamlarning itlar yordamida yovvoyi buqalarni ov qilish manzarasi tasvirlangan. Bu g‘orlarda turli vaqtlarda g‘orshunos geograf olimlardan O. Yu. Poslovskaya, M. Abdujabborov, M. Mamatqulov, M. Xoshimov, A. Mamatov, Sh. Ergashev, A. Nizomovlar bo‘lib, Zarautsoyning tabiati, g‘orlarga chizilgan sur‘atlar tarixi haqida yozishgan.



2-rasm. Zarautsoy darasi (g‘ori) dagi rasmlari

Manbalardan ma‘lum bo‘lishicha, sur‘atlar g‘orning shipiga va devorlariga tosh sathiga mohirona surtganlar, Bunday suratlardan hozirgacha 30 tachasi yaxshi saqlanib qolgan.

By sur‘atlarning nimaligini aniqlash uchun ozgina suvni purkashning o‘zi kifoyadir. Shunda qizil oxra bilan mohirona chizilgan suratlar ko‘z o‘ngimizda namoyon bo‘la boshlaydi. Ya‘ni, ushbu sur‘atlarda katta tezlikda chopayotgan hayvonlar (yovvoyi buqa, it, tulki, yovvoyi cho‘chqa, burama shoxli echki, jayron, tog‘ echkisi, hasharot va boshqalar), turli buyumlar (o‘qyoy, nayza, o‘roqsimon qurollar), niqoblangan odamlar o‘ziga xos tarzda hayotiy qilib tasvirlangan.

Toshga aylangan tarix - Sarmishsoy "**san‘at galereyasi**". Navoiy shahridan 40 km.cha uzoqlikdagi Qoratog‘ tog‘ining janubiy yonbag‘ridagi Nurata tog‘lari yonbag‘rida joylashgan Samishsoy darasiga aynan shunday ta‘rif beriladi. Sababi uzunligi 2,5 km. ga cho‘zilgan bu darada 10 000 ga yaqin tosh qoyalarga o‘yib chizilgan petrogliflarni ko‘rishingiz mumkin (3-,4-rasmlar).

Tadqiqotchilarning ta‘kidlashicha, qadimgi odamlarning ilk manzilgohlari paleolit davrida aynan Sarmishsoy darasida paydo bo‘lgan (taxminan mil. avv. 300-25 ming yillik).



3-rasm. Toshga aylangan tarix - Sarmishsoy "san'at galereyasi"



4-rasm. Toshga aylangan tarix - Sarmishsoy "san'at galereyasi"

Buqa turlarning eng qadimiy tasvirlari esa miloddan avvalgi VII-II ming yillikda yaratilgan. Bu yerdagi sak-skif qabilalarining hayoti bilan bog'liq bo'lgan dastlabki temir davri (miloddan avvalgi IX-II asrlar) kiyik, arxar, tuyalar, otlar va chavandozlar tasvirlari, ov manzaralari va marosimlari bilan ifodalanadi.

Petrogliflarni uzoq kuzatib tursangiz, dara sokinligi bilan uyg'unlashib, o'sha davrlar hayotiga tushib qolasiz go'yo. Tosh asarlarda tasvirlangan olovning kashf etilishi, yovvoyi hayvonlarni xonakilashtirish davrlari, chorvachilik madaniyati tarixi va ov jarayonlari birma-bir ko'z oldingizdan o'taveradi. Ana shunda bu tasvirlar shunchaki sur'atlar emas, haqiqiy san'at asarlari ekanligiga amin bo'lasiz.

Toshlarga o'yib ishlangan, ba'zilar oxra asosida bo'yalgan tasvirlardan ma'lum bo'ladiki, bu darada bir paytlar to'kis hayot uchun barcha sharoitlar bo'lgan. Kiyik, arxar, tuyalar, yovvoyi buqalar, otlar va chavandozlar tasvirlari, ov manzaralari va marosimlar aks etgan suratlar bu fikrlarni tasdiqlab turibdi.

Mazkur tabiatni muhofaza qilish zonasida petrogliflardan tashqari, qadimiy g'or rasmlari, toshlarni qayta ishlash ustaxonalari, shaxtalar, tepaliklarni o'z ichiga olgan manzillar ham bor. Shuningdek, Sarmishsoyning o'simlik va hayvonot dunyosi ham juda ajoyib va xilma-xildir. Bu yerda o'suvchi 650 dan ortiq o'simlik turlari ro'yxatga olingan. O'rta Osiyo kobrasi, burgutlarning bir nechta turlari, qora tulpor va Qizilqum tog' qo'ylari kabi hayvonlar O'zbekistonning "Qizil kitobi"ga kiritilgan.

O'tgan asrning ikkinchi yarim yilligidan buyon o'tgan davr ichida, O'zbekiston Fanlar Akademiyasi huzuridagi Arxeologiya instituti olimlari Ya.G'ulomov, U.Islomov, M.Isoqov, A.Kabirovlar tomonidan Sarmishsoy madaniy merosi tarixi puxta ilmiy o'rganildi. Erishilgan ilmiy natijalar ko'plab axborotnomalar, kataloglar, ilmiy risolalar va o'quv darsliklarida nashr ettirilib, yurtimiz tarixini o'rganishda asosiy manbalardan biri sifatida foydalanib kelinmoqda.

2002-yildan buyon O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi huzuridagi Arxeologiya instituti, YuNESKO tashkiloti hamda "Norvegiya atrof muhitni muxofaza qilish Vazirligi, madaniy meros Direktorati"ning, mutaxassis olimlari (Anne-Sofie Xyugen va Knut Xelskog) bilan hamkorlikda Sarmishsoy madaniy yodgorliklari bo'yicha ilmiy tadqiqod ishlari olib borilmoqda.

2003-yil 27-iyunda O'zbekiston Respublikasi Madaniyat ishlari vazirligi, YuNESKOning O'zbekiston Respublikasi milliy komissiyasi bayonnomasiga ko'ra "Yurtimizning besh ming yillik tarixga ega bo'lgan nodir madaniyat yodgorliklari - Sarmishsoy petrogliflari negizida, "Sarmishsoy tabiiy - arxeologik majmua muzeyi qo'riqxonasi"ni tashkil etish, Sarmishsoy petrogliflari majmuasini YuNESKO Butunjahon madaniy va tabiiy merosi ro'yxatiga kiritish yuzasidan takliflar tayyorlash" to'g'risida idoralararo qaror qabul qilindi.

2004-yil 23-sentabrda Navoiy viloyati hokimining № 172-sonli "Sarmishsoy tabiiy va madaniy merosini muxofaza qilish, o'rganish hamda boshqarishning yangicha usullari" mavzusidagi xalqaro ilmiy amaliy konferensiyasini Navoiy viloyatida o'tkazish to'g'risidagi farmoyishi qabul qilindi.

O'zbekistonning tog'li hududlari azal-azaldan noyob tabiati, eng qadimiy insonlarga makon bo'lgan maskanlari, tog'lardagi doimiy muzliklar, mahobatli daralari, g'orlari, o'ziga xos paleontologik yodgorliklari, endemik darajasi yuqori bo'lgan flora va faunasi borligi bilan ham ahamiyatlidir.

Shuningdek, hududdagi tarixiy obidalar (g'orlar va o'ziga xos paleontologik yodgorliklari) ni ham avaylab asrash, ularga borish yo'llarini ham ta'mirlash, shu sababdan yurtimizda ekoturizm (sayr-sayohat) ni rivojlantirish ham eng ustivordir.

Yuqorida keltirilgan tarixiy, madaniy, meros obidalar o'quvchilarga geografiya fanini o'qitishda sezilarli sifat o'zgarishlariga olib kelishi mumkin.

- o'quvchilarda fanga bo'lgan tafakkurini boyitib borib, geografiya faniga bo'lgan qiziqishini oshirishadi va ular qalbida mehr uyg'otishni shakllantiradi.

- o'quvchilar dars va darsdan tashqari mashg'ulotlar davomida yangi-yangi geografik bilim va manbalardan muntazam xabardor bo'lib borishadi.

Yangi geografik ma'lumotlarni o'quvchilarga yetkazish mashg'ulotlar davomida egallanayotgan bilimlarni yanada kengaytiradi, qiziqishlari natijasida ma'lumotlarni o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, ularni tahlil qilishlariga, o'z bilimlarini baholashlariga, to'g'ri xulosalar qilishni o'rgatishga qaratilganligi bilan quvonchlidir.

#### **Foydalangan adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2019 yil 30 oktyabrdagi "2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining Atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5863-sonli Farmoni.

2. Baratov P. O‘zbekiston tabiiy geografiyasi. T.: ”O‘qituvchi”. 1996.-264b.
3. Rahimbekov R. U., Dontsova Z. N. O‘rta Osiyo tabiatini geografik o‘rganish tarixi. “O‘qituvchi”. T.: 1982.-200 b.
4. Safarov U.X., Saydamatov F.R. O‘lkashunoslik. Uslubiy qo‘llanma. T.: TDPU., “ZUXRA BARAKA BEZNIS” bosmaxonasi. 2022 y.
5. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. T.: O‘zME, 2004-2009.
6. Internet saytlari: [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz);

## FORTEPIANO IJROCHILIGIDA BADIY TALQIN

(A.Safarovning “Alla” asari misolida)

**Nilufar XUDOYQULOVA,**

*O‘zDSMI “Cholg‘u ijrochiligi va musiqa nazariyasi”  
kafedrasi o‘qituvchisi.*

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada fortepiano cholg‘usida ifodali ijro mahoratning ahamiyati haqida so‘z yuritilgan. Shuningdek, maqolada fortepiano musiqasi janrlarida yaratilgan asarlarning e‘tiborga molik jihatlarini inobatga olgan holda interpritatsiyaining ahamiyati haqida bayon etilgan.*

***Kalit so‘zlar:** Agogika, kantilena, pyesa, etyud, polifoniya, legato, dinamika, pedal.*

***Аннотация.** В данной статье говорится о важности выразительного исполнения на фортепиано. Также в статье описывается важность интерпретации произведений, созданных в жанрах фортепианной музыки.*

***Ключевые слова:** Агогика, кантилена, пьеса, этюд, полифония, легато, динамика, педаль.*

***Abstract.** This article talks about the importance of expressive piano performance. The article also describes the importance of interpreting works created in the genres of piano music.*

***Key words:** agogics, cantilena, piece, etude, polyphony, legato, dynamics, pedal.*

Ma‘lumki, musiqa jozibadorligi bilan tinglovchini maftun qilish, qat‘iyatli ohanglari bilan hushyorlikka chaqirish, sho‘x sadolari bilan zavq berish, hissiyotga to‘la kuylari bilan hayajonga solish xususiyatlariga ega. Forteplano cholg‘usida musiqiy obrazni ishonchli gavdalantira oladigan tovushlarni hosil qila bilish ijrochining qobiliyati, mahoratiga bog‘liq. Taniqli rus forteplano ijrochisi G.G.Neygauz fikricha “tovush hosil qilish va uni ustida ishlash usullarini egallash forteplano ijrochisi zimmasiga tushadigan eng qiyin va mashaqqatli mehnatdir, chunki u ijrochining eshita bilish va aqliy sifatlari bilan chambarchas bog‘liqdir” [1. 56]. Shuning uchun forteplano mashg‘ulotlarida musiqiy asarning matnini tahlil qilishda tovush hosil qilish ustida ishlash muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Forteplano ijrochisi mahoratini rivojlantirishda texnik mashqlarni muntazam ravishda chalib borish, ko‘nikma va malakalarni oshirish bilan birga, tovush hosil qilish usullari orqali badiiy obrazlar tasavvurini to‘g‘ri his etgan holda ifodali ijro mahoratini egallash hisoblanadi.

Forteplano cholg‘usining tovushi puflama va torli cholg‘ularga nisbatan tuzulishiga ko‘ra qisqa va davomiy emas. Lekin, shu bilan birga, uning imkoniyatlari nihoyatda keng. Unda yengil, salmoqli, jozibador, o‘tkir, kuychan, qisqa kabi tovushlarni hosil qilish mumkinligi mutaxassislariga yaxshi ayon. Xatto, forteplano